QASHQADARYO VILOYATI
KOSON TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I

180800, Qashqadaryo viloyati, Koson tumani Mustaqillik shoh ko‘chasi-104, Telefon 592-16-28, 592-16-16

2023 - yil 5 - sentabr 157-4-60-Q/23 Koson tuman hokimligi

Koson tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli Koson tuman Boyg‘undi MFY joylashgan Ko‘p tarmoqli markaziy polikilinikasi Boyg‘undi bo‘limini Boyg‘undi oilaviy shifokorlik punktiga aylantirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6110-sonli farmonining 4-bandiga asosan, Koson tumani tibbiyot birlashmasining 2023 yil 21 iyundagi №01-4/365-sonli xatini inobatga olib, Ko‘p tarmoqli markaziy polikilinika Boyg‘undi bo‘limini Boyg‘undi oilaviy shifokorlik punktiga aylantirish aholiga sifatli tibbiy xizmat ko‘rsatilishini samarali yo‘lga qo‘yish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasiga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Hududdagi Boyg‘undi, Yuqori Obron, O‘rta Obron MFYlar aholisiga sifatli birlamchi tibbiy yordam xizmati ko‘rsatilishini yo‘lga qo‘yish maqsadida tuman tibbiyot birlashmasiga qarashli Boyg‘undi MFYda joylashgan Ko‘p tarmoqli markaziy polikilinika Boyg‘undi bo‘limiga Boyg‘undi oilaviy shifokorlik punkti maqomi berilsin.

2. Tuman tibbiyot birlashmasi (F.Tursunov)ga Boyg‘undi oilaviy shifokorlik punktiga, zarur bo‘lgan tibbiyot jihozlar, malakali tibbiyot xodimlar bilan ta’minlash hamda faoliyatini sifatli va belgilangan tartibda yo‘lga qo‘yish yuklatilsin.

3. Tuman moliya bo‘limi (Safarov)ga Boyg‘undi oilaviy shifokorlik punktiga belgilangan normativ meyorlar bo‘yicha shtat birligi ajratish hamda boshqa mablag‘larni ajratilishini yo‘lga qo‘ysin.

4. . Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining hokimning yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari v/b Sh.Jo‘rayev zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**